

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17442016>

INNOVATSION TIZIMNI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK INNOVATSION KORXONALARNING O'RNI

Ergashev Oybek Xaydaraliyevich

University of Business and Science "Yashil iqtisodiyot" kafedrası o'qituvchisi

ergashevoybek723@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion tizimni rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalarining o'rni, unda kichik innovatsion korxonalar faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik jihatlari yoritilib, ularning milliy va mintaqaviy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi roli asoslab berilgan. Maqolada innovatsion infratuzilmaning tarkibiy qismlari – texnoparklar, biznes-inkubatorlar, venchur fondlar va ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyati misolida kichik innovatsion korxonalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kichik innovatsion korxonalar, innovatsion tizim, texnopark, biznes-inkubator, mintaqaviy infratuzilma, innovatsiyalar, raqamli texnologiyalar.

KIRISH

Hozirgi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatlarning barqaror rivojlanishi, ularning innovatsion salohiyati va uni samarali boshqarish tizimi bilan chambarchas bog'liqdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bu kichik innovatsion korxonalarining faoliyati va ularning innovatsion tizimdagi o'rni hisoblanadi. Kichik innovatsion korxonalar iqtisodiyotning eng moslashuvchan, ijodiy va yuqori texnologik segmenti sifatida yangi g'oyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiy tizimning innovatsion yangilanishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida innovatsion rivojlanishni jadallashtirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyot bilan integratsiyalash, hamda hududlarda yangi texnologiyalarni keng tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Shu maqsadda, so'nggi yillarda texnoparklar, biznes-inkubatorlar, innovatsion markazlar va ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash orqali kichik innovatsion korxonalarining rivoji uchun zarur infratuzilma yaratilmoqda.

Kichik innovatsion korxonalar faoliyati nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular yangi ish o'rinlarini yaratadi, yoshlar va ilmiy salohiyat egalarini innovatsion jarayonlarga jalb qiladi, mintaqaviy iqtisodiyotni diversifikatsiyalash va mahalliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishga hissa qo'shadi. Bunday korxonalar faoliyati innovatsion ekotizimni shakllantirishda, hududiy infratuzilma tarmoqlarini samarali ishlashini ta'minlashda, hamda innovatsion g'oyalarning amaliyotga tatbiq etilishida muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, texnoparklar, ilmiy markazlar va universitetlar huzurida tashkil etilgan kichik innovatsion korxonalar ilm-fan, ishlab chiqarish va biznes o'rtasidagi o'zaro

integratsiyaning asosi hisoblanadi. Ular ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliy mahsulotga aylantirish, ticaratlashtirish va yangi texnologiyalarni keng joriy etish orqali innovatsion tizim samaradorligini oshiradi. Shu sababli, innovatsion tizimni rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalar o'ziga xos strategik o'rin egallaydi. Ularning samarali faoliyat yuritishi uchun davlat tomonidan yaratilgan huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy shart-sharoitlar, shuningdek, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish jarayonlari muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu maqolada kichik innovatsion korxonalarning innovatsion tizimdagi o'rni, ularning rivojlanish omillari, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va istiqboldagi yo'nalishlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Innovatsion tizimni rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalarning o'rni masalasi xalqaro va mahalliy iqtisodchilar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, bu yo'nalish iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish natijalariga ko'ra, kichik innovatsion korxonalar nafaqat yangi mahsulot va texnologiyalarni ishlab chiqish, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va innovatsion muhitni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. P. Йохимсен o'z tadqiqotlarida “infratuzilma” tushunchasini iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishini ta'minlovchi moddiy va institutsional omillar majmuasi sifatida talqin etadi. U bozor iqtisodiyotida infratuzilma samaradorligini oshirish orqali kichik biznes sub'yektlari faoliyati uchun qulay muhit yaratilishini ta'kidlaydi. Shu fikrni davom ettirgan P. Розенштейн-Родан iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga imkon beruvchi umumiy sharoitlarni yaratish zarurligini qayd etadi. P. Самуэльсон va С.А. Дебабов ishlarida infratuzilmaning ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati keng yoritilib, uning rivojlanish darajasi innovatsion faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omil sifatida ko'rsatiladi. M.K. Алимуратов esa infratuzilmani “bozorning uzluksiz ishlashini ta'minlovchi vositachilik tizimi” sifatida ta'riflaydi. Unga ko'ra, infratuzilmaning ijtimoiy jihati – bu ishlab chiqarish va inson resurslari o'rtasida muvozanatni saqlash orqali innovatsion faollikni rag'batlantirishdir. Kichik innovatsion korxonalar faoliyatining nazariy asoslari esa Y. Шымпетернинг “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi”da bayon etilgan bo'lib, u innovatsiyani iqtisodiy o'sishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida ta'riflaydi.

Keyingi tadqiqotchilar – Н. Морозов, С. Бездудний, Ф. Смирнова, А. Кулагин, В. Иванов kabi olimlar innovatsiyani ijtimoiy va iqtisodiy natija beruvchi yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni deb izohlaganlar. Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik innovatsion korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlashda texnoparklar, biznes-inkubatorlar va ventchur fondlar muhim rol o'ynaydi. Masalan, AQShning “Silicon Valley”, Yevropaning “Cambridge Science Park” va Yaponiyaning “Tsukuba Science City” texnoparklari innovatsion tizim samaradorligini oshirishda markaziy bo'g'in vazifasini bajaradi. O'zbekiston olimlari - З.Т. Абдулхакимов, А.Н. Асул, М.К. Алимуратов, Е. Мазур kabi tadqiqotchilar esa kichik innovatsion korxonalarning mintaqaviy iqtisodiyotdagi o'rnini o'rganib, ularning ilm-fan, ishlab chiqarish va biznes integratsiyasini ta'minlovchi muhim bo'g'in ekanligini

ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, KIKlar iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ijtimoiy samarani ham ta'minlaydi - yangi ish o'rinlari yaratiladi, yoshlarning ilmiy salohiyati rivojlanadi, hududiy barqarorlik mustahkamlanadi. Adabiyotlar tahlili natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, innovatsion tizimning barqaror rivojlanishi bevosita kichik innovatsion korxonalar faoliyatining samaradorligi va ular uchun yaratilgan infratuzilmaviy sharoitlarga bog'liqdir. Mazkur tadqiqotda kichik innovatsion korxonalar faoliyatining innovatsion tizimdagi o'rnini tahlil qilishda ilmiy-abstrakt, tizimli tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya, hamda iqtisodiy modellashirish metodlaridan foydalanilgan.

Adabiyotlar tahlili natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, innovatsion tizimning barqaror rivojlanishi bevosita kichik innovatsion korxonalar faoliyatining samaradorligi va ular uchun yaratilgan infratuzilmaviy sharoitlarga bog'liqdir.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda kichik innovatsion korxonalar faoliyatining innovatsion tizimdagi o'rnini tahlil qilishda ilmiy-abstrakt, tizimli tahlil, taqqoslash, induksiya va deduksiya, hamda iqtisodiy modellashirish metodlaridan foydalanilgan.

1. Tizimli yondashuv metodi - innovatsion tizimni yaxlit kompleks sifatida ko'rib chiqish, undagi kichik korxonalar, texnoparklar, ilmiy muassasalar va moliyaviy institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash uchun qo'llanildi.

2. Qiyosiy tahlil metodi - O'zbekistonning innovatsion infratuzilmasi holatini rivojlangan davlatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya) tajribasi bilan solishtirishda qo'llanildi.

3. Iqtisodiy-statistik tahlil — kichik innovatsion korxonalar faoliyat ko'rsatkichlarini baholashda, ularning iqtisodiy o'sish, bandlik va texnologik yangilanishga ta'sirini o'lchashda ishlatildi.

4. Grafik va jadval usullari — tahliliy natijalarni vizual ko'rsatish, innovatsion jarayonlarning dinamikasini ko'rsatish uchun foydalanildi.

5. Ekonometrik modellashirish — kichik innovatsion korxonalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni (investitsiya hajmi, ilmiy salohiyat, infratuzilma darajasi) baholash va ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash maqsadida qo'llanildi.

Shuningdek, tadqiqotda ilmiy nazariya va amaliyotning uyg'unligi tamoyiliga amal qilingan bo'lib, mavjud statistik ma'lumotlar, davlat dasturlari, Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tahliliy xulosalar chiqarilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari kichik innovatsion korxonalar (KIK) faoliyatining mamlakat iqtisodiyotida, xususan, mintaqaviy innovatsion tizimda tutgan o'rnini tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy siyosatida innovatsion rivojlanish konsepsiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri - kichik biznes sub'yektlari, ayniqsa, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalarni qo'llab-

quvvatlashdir.

1. Mintaqaviy innovatsion infratuzilmaning hozirgi holati. Maqolada o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda kichik innovatsion biznesni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma shakllanmoqda. Jumladan, texnoparklar, biznes-inkubatorlar, innovatsion markazlar va startap loyihalarni moliyalashtiruvchi venchur fondlar faoliyat yuritmoqda. Masalan, Namangan, Toshkent, Navoiy, Samarqand viloyatlarida tashkil etilgan texnoparklar kichik korxonalarga texnik, moliyaviy va konsultativ yordam ko'rsatish orqali innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishda asosiy tayanch tizimga aylanmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, texnoparklar faoliyati natijasida kichik innovatsion korxonalar:

- yangi texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarmoqda;

- xorijiy hamkorlar bilan qo'shma ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirmoqda;

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini ticaratlashtirishga muvaffaq bo'lmoqda.

Bu jarayon mintaqalarda iqtisodiy faollikning oshishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va hududiy iqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

2. Kichik innovatsion korxonalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. Maqola doirasida o'tkazilgan ko'p omilli ekonometrik tahlil natijalari kichik innovatsion korxonalar rivojiga quyidagi asosiy omillar sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini aniqladi:

- ilmiy-tadqiqot salohiyati darajasi (R&D xarajatlari, oliy ta'lim muassasalari soni);

- moliyalashtirish manbalarining mavjudligi (davlat grantlari, venchur investitsiyalar);

- hududiy infratuzilma rivojlanish darajasi (transport, axborot-kommunikatsiya tarmoqlari);

- raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi;

- davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari (soliq imtiyozlari, subsidiyalar, preferensiyalar).

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekistonda har 1000 nafar aholiga to'g'ri keluvchi kichik tadbirkorlik sub'yektlari soni 2017-yildagi 12,2 birlikdan 2020-yilda 15,6 birlikka, 2024-yilda esa 18,3 birlikka yetgan. Bu esa kichik biznesning, xususan, innovatsion yo'nalishdagi korxonalar ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi.

3. Innovatsion infratuzilmada texnopark va biznes-inkubatorlarning roli. Tadqiqot natijalari texnoparklar va biznes-inkubatorlar innovatsion tizimda asosiy integratsion bo'g'in ekanini tasdiqlaydi. Ular kichik innovatsion korxonalarga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ishlab chiqarish maydonlarini arzon ijarada taqdim etish;

- ilmiy markazlar va oliy o'quv yurtlari bilan bevosita hamkorlikni yo'lga qo'yish;

- intellektual mulkni himoya qilish va patentlash xizmatlarini taqdim etish;

- biznes-reja, marketing, moliyaviy menejment bo'yicha maslahat berish.

Misol tariqasida, Amerika texnoparklari modeli kichik korxonalar ustunligi bilan ajralib turadi, Yevropa modeli – ko‘p sonli kichik firmalar uchun jamoaviy xizmatlar tizimiga ega, Osiyo modeli (xususan Yaponiya) esa ilmiy markazlar, ta’lim muassasalari va korporatsiyalar o‘rtasidagi uzviy integratsiyani ifodalaydi. O‘zbekiston texnoparklari esa asosan Yevropa va Osiyo modellari o‘rtasida o‘ziga xos aralash shaklda shakllanmoqda.

1-jadval

Kichik innovatsion korxonalarning milliy innovatsion tizimdagi asosiy funksiyalari va ta’sir mexanizmlari

Yo‘nalish	Kichik innovatsion korxonalarning roli	Amalga oshirish mexanizmlari	Kutilayotgan natijalar
Innovatsiyalarni yaratish	Yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish	Startaplar, texnoparklar, ilmiy markazlar bilan hamkorlik	Innovatsion mahsulotlar hajmini oshirish, ilmiy ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishi
Innovatsion ekotizimda faollik	Innovatsiya tarmog‘ida tadqiqot markazlari, universitetlar va yirik sanoat korxonalari bilan integratsiya	Innovatsion klasterlar va kooperatsiyalar tashkil etish	Innovatsion hamkorlik samaradorligini oshirish
Mehnat bozori va startap madaniyatini rivojlantirish	Yosh mutaxassislarni, talabalarning g‘oyalari asosida yangi bizneslar yaratish	Inkubatorlar, akseleratorlar, grant dasturlari	Yangi ish o‘rinlari, kreativ iqtisodiyot va startap madaniyati rivoji
Hududiy innovatsion salohiyatni oshirish	Mintaqaviy innovatsion markazlarda kichik korxonalarning faolligi	Hududiy texnoparklar, innovatsion markazlar, davlat grantlari	Hududlar o‘rtasida iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish
Innovatsion eksportni kengaytirish	Innovatsion mahsulotlarni xorijiy bozorlarga olib chiqish	Texnologik transfer markazlari, xalqaro hamkorlik, eksport kafolatlari	Eksport tarkibida yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushini oshirish
Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi	Ilmiy ishlanmalarning tijoratlashtirilishida vositachi rol o‘ynaydi	Universitet–biznes hamkorlik dasturlari, R&D loyihalar	Ilmiy natijalar asosida yangi korxonalar va texnologiyalar paydo bo‘lishi

Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.

Ushbu 1-jadvalni tahlil qiladigan bo‘lsak, unda:

Birinchisi innovatsiyalarni yaratishdagi o‘rni: kichik innovatsion korxonalar yirik korporatsiyalarga qaraganda moslashuvchanroq va tezkor qaror qabul qiladi. Shu bois ular yangi g‘oyalar, texnologiyalar va mahsulotlarni tez ishlab chiqish hamda

sinovdan o'tkazish imkoniyatiga ega. Masalan, O'zbekistonda “IT Park” rezidentlari orasida 70 foizdan ortig'ini kichik innovatsion startaplar tashkil etadi. Ularning ishlab chiqqan mobil ilovalar, dasturiy mahsulotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar mamlakat innovatsion infratuzilmasining eng faol qismini tashkil etadi.

Ikkinchisi innovatsion ekotizimdagi ahamiyati: kichik korxonalar universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalari o'rtasidagi “ko'prik” vazifasini bajaradi. Ular g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, ilmiy natijalarni tijoratlashtirishda vositachilik qiladi. Shu sababli, har bir rivojlangan innovatsion tizimda startaplar, spin-off va spin-out shaklidagi korxonalar markaziy rolni egallaydi.

Uchinchisi mehnat bozori va startap madaniyatiga ta'siri: Innovatsion kichik bizneslar yangi kasblar, IT mutaxassisliklari, marketing, dizayn, texnologik ishlab chiqarish kabi sohalarda ish o'rinlari yaratadi. Natijada yoshlar o'z g'oyalarini amaliy loyihaga aylantirib, milliy innovatsion salohiyatning o'sishiga hissa qo'shadi.

To'rtinchisi hududiy innovatsion rivojlanishdagi o'rnini: Kichik innovatsion korxonalar asosan texnoparklar va sanoat zonalarida joylashgan bo'lib, bu hududlarning iqtisodiy faolligini oshiradi. Masalan, Farg'ona, Namangan, Samarqand va Toshkent viloyatlarida tashkil etilgan texnoparklarda yuzlab kichik innovatsion korxonalar faoliyat yuritmoqda. Ularning faoliyati hududiy investitsiyalarni jalb etish va texnologik ishlab chiqarishni mahalliyashtirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan eksport va xalqaro hamkorlik: innovatsion kichik korxonalar yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarib, mamlakat eksport salohiyatini kengaytiradi. 2023–2024-yillarda IT Park rezidentlarining eksport hajmi 344 mln AQSh dollaridan oshgani, bunda kichik innovatsion kompaniyalar ulushi 60% dan ortiqni tashkil etgani qayd etilgan (manba: IT Park Uzbekistan hisobotlari).

Oltinchidan ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi: Kichik innovatsion korxonalar ilmiy izlanishlarning amaliyotga o'tishini tezlashtiradi. Bu tizim “universitet–ilmiy markaz–ishlab chiqarish” zanjirida barqaror aloqalar o'rnatishga yordam beradi. Shu bois, har bir ilmiy natijani tijoratlashtirishda startaplar yoki kichik innovatsion firmalar ishtiroki muhim hisoblanadi.

Kichik innovatsion korxonalar — bu milliy innovatsion tizimning “dvigateli”dir. Ular iqtisodiyotda yangi texnologiyalarni joriy etadi, yosh mutaxassislar uchun imkoniyatlar yaratadi, ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasida aloqani kuchaytiradi hamda eksportga yo'naltirilgan yuqori texnologik mahsulotlar ulushini oshiradi. Shu sababli, davlat tomonidan kichik innovatsion korxonalarni qo'llab-quvvatlash, ularni texnoparklar, grant dasturlari va inkubatorlar orqali rag'batlantirish mamlakatning raqobatbardosh innovatsion iqtisodiyotini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Xorijiy tajriba va istiqbolli yo'nalishlar. Xorijiy tajriba tahliliga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda kichik innovatsion korxonalar faoliyati davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanadi. AQShda — “Small Business Innovation Research” (SBIR) dasturi, Germaniyada — “High-Tech Strategy”, Yaponiyada esa “Science and Technology Basic Plan” doirasida kichik innovatsion korxonalarga grantlar, soliq imtiyozlari va kredit kafolatlari beriladi.

O'zbekiston uchun bu tajribalardan kelib chiqib, quyidagi yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi:

- texnoparklar faoliyatini yanada diversifikatsiyalash;
- universitetlar huzurida innovatsion laboratoriyalarni ko'paytirish;
- innovatsion startaplar uchun elektron platforma yaratish;
- xalqaro texnologik transfer markazlari tarmog'ini shakllantirish.

MUHOKAMA

Bugungi kun va raqobat kuchaygan sharoitda har bir mamlakat o'z iqtisodiyotini innovatsiyalar asosida rivojlantirishga intilmoqda. Chunki innovatsion yondashuv nafaqat yangi mahsulotlar yaratish, balki mavjud resurslardan samarali foydalanish, raqobatbardoshlikni oshirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirish imkonini beradi. Shu jarayonda kichik innovatsion korxonalarining o'zni beqiyosdir.

Avvalo, kichik innovatsion korxonalar bu yangilik izlaydigan, texnologik yechimlarni ishlab chiqadigan va ularni bozorda sinovdan o'tkazadigan subyektlardir. Ular katta korxonalarga nisbatan tezroq qaror qabul qiladi, yangi g'oyalarni sinovdan o'tkazadi va muvaffaqiyatli bo'lsa, ularni keng miqyosda tatbiq etadi. Shu bois, ular milliy innovatsion tizimda "tezkor harakatlanuvchi element" sifatida qaraladi.

Ammo, amaliyot shuni ko'rsatadiki, kichik innovatsion korxonalar ko'p hollarda moliyaviy, tashkiliy va infratuzilma muammolari bilan to'qnash keladi. Masalan, yangi startap g'oyasini amalga oshirish uchun zarur mablag' topish qiyin, venchur kapital bozori yetarlicha rivojlanmagan, texnoparklar esa hali hamma hududlarda faol ishlamayapti. Bundan tashqari, ko'plab yosh tadbirkorlar intellektual mulkni ro'yxatdan o'tkazish tartiblarini to'liq bilishmaydi, bu esa ularning ishlanmalari himoyasiz qolishiga olib keladi.

Biroq shuni ham ta'kidlash lozimki, so'nggi yillarda O'zbekistonda innovatsion muhitni yaxshilash bo'yicha sezilarli qadamlar qo'yilmoqda. Innovatsion rivojlanish agentligi, texnoparklar, startap akseleratorlar faoliyat yuritmoqda. Davlat grantlari, soliq imtiyozlari, "Startap tashabbuslari" dasturlari kichik innovatsion korxonalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa innovatsion faollikni oshirish va yoshlarning ilmiy-texnologik g'oyalarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, kichik innovatsion korxonalar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va intellektual rivojlanishning ham muhim drayveri hisoblanadi. Ular orqali yoshlar o'z ijodkorlik salohiyatini namoyon etadi, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqa mustahkamlanadi, yangi texnologiyalar mahalliy sharoitga moslashtiriladi.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, innovatsion tizimni rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalar (KIK) muhim strategik o'rin egallaydi. Ular innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va ticaratlashtirish orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi.

Kichik innovatsion korxonalar faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etib, bandlikni ta'minlash, yoshlarning ilmiy-texnik salohiyatini rivojlantirish va hududlarda barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Shu bois kichik innovatsion korxonalar ilmiy-tadqiqot ishlanmalari asosida yangi mahsulot va texnologiyalar yaratish, ularni bozorga chiqarish, ticaratlashtirish va eksportga yo'naltirish orqali iqtisodiyotning yuqori texnologik tarmoqlarini shakllantiradi xamda ishlab chiqarish samaradorligini va innovatsion mahsulotlar sifatini oshirmoqda.

Umuman olganda, innovatsion tizimni rivojlantirishda kichik innovatsion korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning ilmiy salohiyatini kuchaytirish va ticaratlashtirish imkoniyatlarini kengaytirish - O'zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-iyuldagi PQ-4797-son Qarori – "Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-apreldagi PQ-222-son Qarori – "2022–2026-yillarda ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. "2023-yil faoliyat yakunlari va 2024-yil ustuvor yo'nalishlari haqida hisobot", Toshkent, 2024.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlari (2017–2024-yillar) – "Kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanish ko'rsatkichlari".
5. Йохимсен, Р. Экономическая инфраструктура и развитие хозяйственных систем. – М.: Прогресс, 1985.
6. Розенштейн-Родан, П. Problems of Industrialization of Eastern and South-Eastern Europe. – Economic Journal, 1943.